

электронное периодическое издание

ЭКОНОМИКА

и

социум

ISSN 2225-1545

№10(113)-2023



ЭЛЕКТРОННОЕ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ
ПЕРИОДИЧЕСКОЕ ИЗДАНИЕ

«Экономика и социум»

iupr.ru

УДК 004.02:004.5:004.9

ББК 73+65.9+60.5

ISSN 2225-1545

Свидетельство о регистрации
средства массовой коммуникации
Эл № ФС77 - 45777 от 07 июля 2011г.
Эл № ФС77 - 80454 от 01 марта 2021г.

Журнал включен в систему НЭБ (e-library) [№ 594-09/2013 от 26.09.2013](#)

DOI-18581/2020

Тематика журнала: актуальные вопросы современной экономики и социологии - от теоретических и экспериментальных исследований до непосредственных результатов управленческой и производственной деятельности. Публикации в журнале учитываются как опубликованные работы при защите диссертаций на соискание ученых степеней России и зарубежья.

РАЗДЕЛЫ НОМЕРА:

- Основной раздел: социально-экономические аспекты развития современного государства;
- Современные технологии управления организацией;
- Актуальные вопросы политики и права;
- Современные науки и образование;
- Информационные и коммуникативные технологии;
- Здравоохранение в обществе.

Выпуск №10(113) часть 1 (октябрь, 2023). Сайт: <http://www.iupr.ru>

© *Институт управления и социально-экономического развития, 2023*

Nusratov B.
"Alfraganus University" Filologiya fakulteti
Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi

ULUGBEK HAMDAMNING "YAXSHIYAM, SEN BORSAN!.." **HIKOYASIDA REALISTIK VA SIMVOLISTIK OBRAZLAR TAHLILI**

Annotatsiya. Maqolada yozuvchi Ulugbek Hamdamning "Yaxshiyam, sen borsan!.." hikoyasida obrazlar realistik va simvolistik mano qatlamlariga kora tahlil qilinadi, voqealar rivozi obraz va obrazlilik tushunchalari asosida talqin etiladi.

Kalit sozlar: Quroni Karim, Yusuf, Zulayho, epilog, fabula, motiv, psixologiya, problema va problematika, tendensiya, realistik, simvolistik obrazlar, vizuallik, sujet, iyerarxik tizim, detall.

Nusratov B.
teacher
Faculty of Philology
Department of Oriental Languages
"Alfraganus University"

ANALYSIS OF REALISTIC AND SYMBOLIC IMAGES IN ULUGBEK **HAMDAM'S STORY "I AM GOOD, YOU ARE!"**

Annotation. The author Ulugbek Hamdam's story "Okay, you're going!" Analyzes the images according to the layers of realistic and symbolic meaning, and the plot is interpreted on the basis of the concepts of image and imagery.

Keywords: Quran, Yusuf, Zulayha, epilogue, fable, motive, psychology, problem and problem, trend, realistic, symbolic images, visuality, plot, hierarchical system, detail.

Yozuvchi Ulugbek Hamdam hikoyalarini tahlil qilar ekanmiz, uning ijodidagi kop jihatlar alohida etiborimizni tortadi. Bu hikoyalarni shunchaki oqish mumkin emas, chunki har bitta jumla, qahramonlar nomi, hatto, hikoya nomining ortida ham bir dunyo fikr yotadi. Ularni tushunib yetish uchun har bir jumlaning kalitini topishga, magzini chaqishga togri keladi. Aks holda qoniqish hissini tuyib bolmaydi. Ularni tushunish va togri tahlil qilish yolida tadqiqotchidan nafaqat keng dunyoqarash, baland tafakkur, shuning bilan, gayri oddiy qarash va eng muhimi — uygoq qalb sohibi ham bolishi talab etiladi. "Tosh", "Safar", "Unitilgan nay navosi" va "Yaxshiyam, sen borsan!.." kabi koplal hikoyalari ham shular jumlasidandir. Ilk tadqiq nigohimizni yozuvchining "Yaxshiyam, sen borsan!.." hikoyasidagi realistik va simvolistik obrazlar tahliliga qaratdik.

Hikoyaning bosh qahramonlari sifatida Yusuf va Zulayho obrazlari tanlab olinar ekan, bevosita “Quron” qissalari va ananaviy razmlar, bozor, dokon, yol kabi motivlar hamohangligida tarix va bugun, otmish va kelajak birlashtiriladi.

Hikoya Quroni Karimdan olingan epigrafi bilan boshlanadi: “Va albatta Alloh qabrlardagi kimsalarni tiriltiruvchidir” Haj surasi, 7-oyat. Odatda, asarga yozuvchi epigrafi tanlashda bir qancha xususiyatlarni inobatga oladi. Jumladan, asar mazmuniga qisqa kirish qilish yoki umumiy voqealar fonini oquvchiga qisqa, aniq, londa shaklda mazmunni gavdalantirish maqsadini epigrafi tanlash bilan amalga oshiradi. Ulugbek Hamdamning “Yaxshiyam, sen borsan!..” hikoyasi epigrafi esa ham shakliy, ham mazmuniy, ham boshlanish, ham yakun vazifasini bajarishga xizmat qiladi. Badiiy asar kompozitsiyasining bir bolagi hisoblanuvchi epilog — xotima vazifasini bajaradi. Oziga xos boshlama, yani hikoya avvalida yozuvchi yakundan keyingi bolajak hodisalarga ishora qiladi. Shu bilan birga oquvchini boshlanajak hikoyaga did va saviya jihatidan tayyorlab, asarning shunchaki vaqt otkazish vositasi emasligiga ishora qiladi.

Hikoya juda sodda, oquvchining hozirgi zamon psixologiyasiga mos tarzda yigit va qiz ortaasidagi telefon suhbatidan boshlanadi. Mavzu atamasining ustki qatlamida roy beruvchi ikki sevishtgan Yuzuf va Zulayho ismli yigit-qizning hozirgi zamonda tez-tez uchrab turuvchi tushunmovchilik — telefon “muammosi” oquvchida qahramonlarga favqulodda yaqinlashish va asarga kirish vazifasini bajaradi. Yanikim bir eshik, avvalgi ostonani yozuvchi qahramonlar va oquvchi qalbidan boshlaydi. Badiiy tafakkurdan kelib chiqib ilmiy tahlilga asoslanadigan bolsak, aslida hikoya problemi va problematikasi chuqur tarixiy asoslarga ega ekanligini voqea davomida, sujetning keyingi chiziqlarida aniqroq kora boshlaymiz.

Asar fabulasining oddiy boshlama bilan harakatga kelishi ham oquvchining xotirasida tez qolish va uning oqishililigini favqulodda kuchaytirib yuboradi. Xosh, “telefon mojarosi” nima bilan tugarkin? “Meni yozibdi-a?” Shu kabi oylar oquvchida hikoyadan ilgarihlash uchun kuchli istakni vujudga keltiradi. Garchi hali baholash tendensiyasi roy beragan bolsa-da, yarim soat otar-otmas ularning bekatdan restoranga yol olishi bilan obrazlar, razmlar harakatining jadal suratda hikoyaga kiritila boshlaganini sezamiz. Bekat — bu umrning avvali. Restoranga yol olmish kishilar esa, tugilishga choglangan godaklardir. Restoranda esa hamma narsa muhayyo, faqat unga tolov muqarrar. Bunday tariflash hali ochqichlanmagan hikoyaga biroz erish tuyulsa-da, shuni unutmaylikki, haqiqiy asar bir marotaba emas, on, yigirma, ottiz bor qayta oqilgandagina oz sirlarini sinchov oqirmanga, adabiyotshunosga ochishi mumkin.

Yuzuf va Zulayho otirgan katta oynavand restoran va issiq choy — yangi tugilgan chaqaloqning issiqlik istashi va bu dunyo sovuqligidan chochishi deb anglasak, yanada teranroq goyani, badiiy asarni baholash tendensiyasini anglab yetgan bolamiz. Musiqa alla, buyurtma esa — taqdiri azal. Yozuvchi shu yerda qahramonlarning restoran menyusini korgan-kormaganliklarini oquvchiga qorongu qoldirib, tezda u yerdan voqeani kochaga kochiradi. Axir tavallud

topganimizda bizga ne taqdir qilinganini korgan yoki kormaganimiz esimizda yoqda! Bu faqat Yaratuvchigagina malum haqiqat.

Zulayhoning bozorga borish istagini bildirishi bilan Yuzuf va Zulayho ismining hamda bozor toponimining realistlik obrazdan simvolizmga toliq kochib otganini koramiz. Garchi voqeada real hayotga xos keyingi uchrovchi detallar mavjud bolsa-da, ular endilikda manoviy qatlamlarida faqat va faqat kochma mano, metaforaviy va arxtipik darajalangan manolarni ifodalashini anglaymiz.

“Bozor ham naq dunyoning ozi edi. Kirdingmi konglingni berasan. Kirdingmi, chiqqing kelmaydi. Kirdingmi, sal bolmasa bozorning oziga aylanasan”. Hikoyadagi ushbu uchta gap zamirini sharhlash uchun biza tasavvufiy atamalarning manosidan xabardor bolishimiz shart. Lekin yozuvchi oquvchini yanada asar bagriga va ramzlarga sinchkov nazar tashlashi kerakligini aytmoqchi bolgandek, mayli bu safar ham sehrli kalitni bera qolay, degandek, fikrini ochiq bayon qiladi. Dunyo bir bozor. Bozor dunyoning ozi. Yusuf va Zulayho boshqa bir dunyodan bozorga — bu dunyoga keldilar. Bu dunyoga kongil berib, qolib ketganlar, qalbini, kechmishni, kelmishini unutganlar millionlab topiladi. Dunyodan ketar chogida unga bogalib, jonini mushtiga tugib olganlar, ajalga bas kelaman deb urinib yotganlar minglab topiladi. Bozorga ozini sotib yuborganlar, bozor desa paloncha deb tushunilib qolganlar yuzlab topiladi bu yerda. Ana shunday razmlardan iborat kochimlar oquvchining badiiy did va saviyasini ostira boshladi. Hikoya sujeti qizgin tus oladi. Dokonlarda hamma narsa bor. Yusuf va zulayho faqat u yerda insof-u diyonatni topa olishmaydi xolos. Axir zorda insof nima qilsin? Axir bozor otliq dunyoda diyonat nima qilsin? Qadim dunyoni bekorga yuzsiz kampirga oxshatishmaydi-ku?

Yozuvchi dokon oralab borayotgan Zulayho tilidan “Odam” sozini tabiiy hayot materiali — spontan shaklda qollaydi. Biroq bunda ham tub mano bor. “Mana Odamlar qayerda ekan”. Odam atoning avlodlari bozorga, dunyoga qorishib, aldanib, qoshilib, sotilib ketibdilar-ku! Badiiy adabiyotning aytmay turib aytish xususiyati — oquvchi psixologiyasida oziga qarshi oz konfliktni paydo bolishiga olib keladi. “Ozi shundaymasmidi Zulayho!” — Yusuf tilidan jaranglaydigan bu gaplar zamirida aktual qatlam mavjud. Axir hammaning ishi bozorda bitadi-da!

Hikoyaning shu yerda Zulayho bozorga kelishidan maqsad hech narsa kerak emasligini, hech narsa olib ketish niyati yoqligini aytadi. Yusuf esa ajablanib, hech narsa kerak bolmasa, nega kelding, deb hayratlanadi. Mana shu gaplar negizida haqiqiy tub estetik qatlam — obrazlarning universal xarakteri ochiladi. Chin inson bu dunyoga faqat sayr uchun keladi, undan hech narsa tama qilmaydi va hech narsa olib ketmasligini anglab yetadi.

“Yozildimi osha chigal?” — Yusufning savoliga Zulayho battar chuvalashdi deb javob beradi. Alaxusu, hech qachon bu dunyoda inson kongli xotirjam bolmagan va bolmaydi demoqchi yozuvchi. Bu esa asarda ijtimoiy-tarixiy asoslarning chuqur singdirilganligidan dalolatdir. Keyin esa har ikkovlonning bozor chiqish eshigini topolmay qolishlari, “chiqishni bilmadim-u,

ana kirish hamma joyda”, javobini olishlari asarda tugunning paydo bolganligidan dalolat beradi. Bir tugunki, asrlar aro yechish mumkin bolmagan, bir kiprik qoqgudek harakatdan uzilib ketadigan tugunak. Yon atrofdagi barcha eshiklar faqat kirish eshiklari edi, chiqish bolib tuyulganlarining bari kirish edi. Chiqish qayerda? Dunyoda adashgan obrazlar sifatida garchi badiiy adabiyotda hali Yusuf va Zulayho obrazi mavjud bolmagan bolsa-da, biz ularni tarixan nafs va sabr timsoli deb bilar edik. Ulugbek Hamdam esa hikoyaning ushbu qismiga kelib, ularni tipik qahramon darajasiga kotaradi. Butun insoniyatning yuziga oyna tutgan git va qiz, erkak va ayol, chol va kampir obrazi — favqulodda umumlashma, yigma obraz darajasiga kotariladi.

Hikoyada moysafid chol obrazi — ananaviy Hizr obraziga juda oxshash, yanikim u haqiqatni biladi. U yolda insonlarga kutilmaganda duch keladi. Uning manzili kutilmaganda paydo boladi. Bu obraz oz haqiqati tomon dadil intilganlargagina togri yol korsatadi. Choyxona obykti esa manaviy voqealar tizimidagi aqlni peshlab oladigan, yol oldidan mulohaza qilinadigan, otgan umrga va kelajakka nazar tashlanadigan joy simvoli vazifasini otaydi. Shu yerda hikoya kulminatsiyaga qarab harakatlanadi. Voqealar zanjirida Zulayhoni chiqish eshigi tomon — qabriston orqali otiladigan yol tomon yetaklayotgan Yusuf uni yoqotib qoyadi. Ayol kishining oltin-u zeb-ziynat oldida ojiz ekanligi xuddi shu detal orqali mohirona korsatib berilgan. Keyin esa vaqtida erkak kishining korsatgan dadilligi sabab ozligiga qaytgan Zulayho faylasufona gap aytadi: “Yaxshiyam bozordan avvalini korganmiz. Bozordan keyinini ham korarmikanmiz”.

Ikkinchi bor choyxonachi chol oldiga kelib qolish bilan davom etuvchi voqealar zanjirida bir kunlik chagish inson umridagi boshlangich nuqtaga qaytarib qoyishi, umr boyi qilgan ishlarining hechlikka tomon yuz burish motivi asosida oquvchiga tushuntiriladi. Voqealarning keyingi fonida Yusuf obrazining olib ketilishi, bozor xojayiniga aylanishi, ortidagi xizmatkorlar — yigit kishining ayollardan kora dunyoga xirs boglashi ozgacha kechishi va bu juda ogir kulfatlarga olib kelishini ifodalaydi.

Yuqorida aytilgan simvolistik detal obrazlar: bekat, restoran, bozor, eshik, choyxona, hattoki choy va qahva iyararxik tizimga birlashadi. Ular oz navbatida Yusuf va Zulayho bilan boglangan ushbu detallar xarakter obrazini yaratishga, u esa oltin ipga terilgan vaziyatlar obrazini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa asar mikrosistepasini vujudga keltiradi.

Xuddi shu yerda tarixiy voqelikning qarshilantirilishi asar kulminatsiyasiga yangilik, originallik bagishlaydi. Tarixda Yusuf obrazi gozallik timsoli bolsa, hikoyada bu husn Zulayhoga kochib otadi. Bu husnda ham majoz, ham razm, ham tasavvuf, ham islomiy qarashlar mavjud. Jumladan, faqatgina Zulayhoning yuziga qarash uchun dunyoga keldim deydigan Yusuf — ham haqiqiy ishqqa, ham Yaratganga, ham Quronga shak keltirib qoyganligini Zulayho qoliga xanjar olgandagina tushunib yetadi. Biroq bir umrga yoqotilgan jamol — abadiy husnning inson qalbiga, Yusuf qalbiga tushgan bir jarohat deb anglashimiz ham mumkin. Zero, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” asaridagi razmlardan

yaxshi voqif bolgan Ulugbek Hamdam Yusufning chin komil inson va Zulayhoning uning kozgusi sifatida obrazlashtirishi ham yetuk ijodkor tajribasidan kelib chiqqan desak, mubolaga bolmaydi.

Yusufning “yoldan ozgan gumroh” deya ozini tan olishi va bashang kimlaridan voz kechishi — hikoyaning yechimga yaqinlashganidan darak beradi. Korinadigan vizuallik — voqelikning qabriston darzovasi yonida ikki qalbning — bir butunlikning, yozuvchi takidlaganidek, “tuynukdan” otib ketishi reallikka asoslangan umrning tugashi va Zulayho yuzining shu onda yorishib qayta gozallikka burkanishi ilohiy jamolning akslanishi sifatida qabul qilinishi oquvchida hech qanday qiyinchiliksiz bir tabiiy jarayon holida sodir boladi.

Xulosa qilib aytganda, “Yaxshiyam, sen borsan!..” hikoyasida Ulugbek Hamdam qollagan reallikdan sivismolizmga koçgan obrazlar sistemasi deganda, Yusuf, Zulayho, choyxonachi chol, odamlar, tillachilar, dokondorlar, eshiklar, dokonlar, choyxona, qabriston, romolcha (asar songgida Yusuf tomonidan Zulayhoning yuzlaridagi qonni toxtatish uchun qollangan — minimalizm asosida, bizningcha, bir parcha mato insonga eng songgi dam zarurligi anglashilgan) asarning yaxlit konsepsiyasini komillik yolidagi bashariyat oldiga qoyilgan umumbashariy etiqodlarni — ezgulik va gozallikning hech qachon bozorda sotilmasligi va sotib olib bolmasligini, insoniy umrning bir lahzalik yalt etgan shula misol harakatlanayotgan voqelikda haqiqat izlab otilishi hamda bozor deb atalmish dunda hech qachon yolni yoqotmaslik zarurati, ilohiy muhabbatni qalbida mahkam tutganlar qismati firdavsi jannatda bolishi haqida faylasufona bayon qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. 2018, T: Navoiy universiteti
2. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, 1980.
3. Ulugbek Hamdam. Tolin oy qissasi. Hikoyalar. T: Ozbekiston, 2017, 135-152 betlar.
4. Quroni Karim, Alouddin Mansur tarjimasi, T:Sharq, 1991.
5. Toxta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, 1979.
6. H.Umurov. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, 2002.
7. D.Quronov, Z.Mamajonova, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lugati. T: Akademnashr, 2010.

Оглавление

ОСНОВНОЙ РАЗДЕЛ

Abdullaeva Sh.S., DIFFERENT STRATEGIES FOR LEARNING A LANGUAGE.....	5
Akbarov B., ARALASH TA'LIM VA UNING AFZALLIKLARI	9
Akhimbetova G.Q., ISSUES OF STUDYING KARAKALPAK NATIONAL MUSIC ART: ANALYSIS AND RESEARCH.....	13
Arabboev M.A., Yuldasheva G.B., DEFINITION OF THE EFFECTIVENESS AND SAFETY OF DRUGS IN PATIENTS WITH STABLE ANGINA	17
Asemova R.J., TO'LOV TIZIMLAR FAOLIYATIDAGI RISKLARNI BOSHQARISHDA XORIJ TAJRIBA.....	20
Avezov M.M., Avezova A.M., TOPONYMIC ANALYSIS OF THE NAMES OF SOME TOURIST OBJECTS IN TASHKENT REGION	27
Bakhronova Z.Kh., INTENSIV BOG'LARDA TOMCHILATIB SUG'ORISH TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH	33
Bobomurotov S.Yu., SAFE MOVEMENTS OF TRANSPORTS AND PEDESTRIANS ON CITY ROADS AND STREETS.....	38
Bo'riyeva S.A., MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM SOHASIDA IJTIMOIIY E'TIBORNI AHAMIYATI.....	42
Dadaxanova R.A., TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF DISTANCE EDUCATION IN THE INDIVIDUALIZATION OF EDUCATIONAL PROCESSES ON THE BASIS OF DIGITAL TECHNOLOGIES.....	49
Erdanov M.N., SURXONDARYO VILOYATI TUPROQ QOPLAMINI O'RGANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI	52
Esanov E.A., DAVLAT XARAJATLARINING INFLATSIYAGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	58
Gulimmatov I., Gulimmatova I.B., TIBBIY XIZMAT OBYEKTLARINI HUDUDIIY JIHATLARINI TAHLIL QILISHDA KARTOGRAFIK METODDAN FOYDALANAISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	64
G`ulomova S.M., TUPROQLAR TASNIFI VA TUPROQ UNUMDORLIGI	70
Hakimova Sh.A., QISHLOQ XO'JALIGI INFRATUZILMASI VA UNING RIVOJLANISHI.....	73

Hikmatov F.O', Qurbonov Sh., Abduvahobov S.S., QOROVULBOZOR TUMANIDAGI 4K KANALINING TEXNIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	77
Ibragimov I.A, Sobirov Z.R., Inomov D.I., ASSESSMENT OF THE RELIABILITY DURING OPERATION OF "SOUTH SURKHON" WATER RESERVOIR.....	80
Ibragimov I.A., Sobirov Z.R., Inomov D.I., CREATING A DUTY SCHEDULE FOR EFFICIENT FILLING AND EMPTYING OF THE SOUTHERN SURKHAN WATER RESERVOIR.....	84
Ishonkulov Sh.U., THE FUNDAMENTALS OF TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE.....	88
Kadirova Ya.B., THE ROLE OF SPIRITUAL IDEOLOGICAL EDUCATION IN SECONDARY SCHOOLS	93
Kamolova D.Sh., O'ZBEKISTONNING TRANSPORTI, TRANZIT SAVDO SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING GEOGRAFIK MASALALARI.....	98
Kodirova Sh., CONTENT OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION AND MASS SPORTS	102
Komilova M.Sh., Mirzaxadjayeva Sh.Sh., O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI SAMARALI OLIB BORISH YO'LLARI	109
Komilova. D.T., ORGANIZATION AND CONDUCT OF LABORATORY WORK IN PHYSICS INTEGRATED IN VIRTUAL FORMS	120
Kudratov A.A., ECONOMIC INDICATORS OF GROWING LEGUMES ON IRRIGATED AREAS	123
Kurbanova M.B., CAUSES OF EGOCENTRISM IN TEENAGERS.....	127
Kalabaev S.B., SARIBAS KO'LI GIDROGRAFIYASI VA SUV SATHI REJIMI	130
Latipova N.K., A MODEL OF PEDAGOGICAL DESIGN OF EDUCATIONAL PROCESSES IN A DISTANCE LEARNING ENVIRONMENT IN MEDICAL INSTITUTES	139
Madrakhimova Z.N., Ergasheva Sh.S., Omonboyeva M.Ya., FACTORS IN THE USE OF WATER RESOURCES AND INCREASE ITS EFFICIENCY IN ECOLOGY REPUBLIC OF UZBEKISTAN	142
Mamadieva M.M., OPTIMIZATION OF TREATMENT OF IRON DEFICIENCY ANEMIA IN THE POSTPARTUM PERIOD	148

Mamadalieva M.M., MODERN VIEWS ABOUT THE PROBLEM OF IRON DEFICIENCY ANEMIA IN PREGNANT WOMEN (LITERATURE REVIEW)	153
Maxammatova S.X., SACHRATQI O`SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA UNDAN XALQ TABOBATI VA ZAMONAVIY TIBBIYOTDA FOYDALANISH USULLARI.....	158
Mukhamedjanov M.Sh., EVOLUTION OF CORPORATE INCOME TAX.....	162
Musayeva Sh.A., COMPETITIVE APPROACH AND MARKETING TOOLS TO THE TRANSPORTATION SERVICES MARKET	169
Musayeva Sh.A., PROBLEMS RELATED TO MARKETING RESEARCH IN THE FURNITURE MARKET OF UZBEKISTAN	174
Nuriddinov R.M., BUXORO VILOYATI EKOLOGIK MUHITIGA TRANSPORTNING TA`SIRI	178
Nusratov B., ULUGBEK HAMDAMNING “YAXSHIYAM, SEN BORSAN!..” HIKOYASIDA REALISTIK VA SIMVOLISTIK OBRAZLAR TAHLILI	183
Olimov O.B., GEOINFORMATSION KARTOGRAFIYANING ISTIQBOLLARI	188
Oripova Sh.B., FEATURES OF THE COURSE OF HEMORRHAGIC VASCULITIS AMONG CHILDREN	192
Pardaboyev A., FACTORS OF INFLUENCE OF TEACHER'S POSITION ON STUDENT'S PERSONALITY DEVELOPMENT.....	195
Pardayeva E., YENGIL ATLETIKA BO`YICHA YUGURISH TEXNIKASINING ASOSLARI.....	200
Qosimov Z.O., SYSTEMS THAT CONTROL THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE FORMATION OF DISTANCE LEARNING PROCESSES	204
Qosimov Z.O., Latipova N.K., Usmanova F.T., INDIVIDUALIZATION TECHNOLOGIES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING PHARMACOLOGY	207
Qurbonov P.R., IQLIM O`ZGARISHI SHAROITIDA TEKISLIK MINTAQASI SHAHARLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI (JANUBIY O`ZBEKISTON MISOLIDA).....	210
Rakhmatov A., STUDY OF USE OF AUTONOMOUS ENERGY SUPPLY SYSTEM IN A MOBILE HOME.....	215